

MANZARALI O'SIMLIKLAR BIOLOGIK XUSUSIYATLARI HAMDA AGROTEKNIK TALABLARI

¹Saidova Dilnura Bog'bek qizi,

²Erkaboyeva Gulyor Eldor qizi,

³Suyunova Komila Sanjar qizi

^{1,2,3}Toshkent davlat agrar universiteti talabalari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7425997>

Annotatsiya: Manzarali o'simliklar, dekorativ o'simliklar — kishilarning estetik ehtiyojlarini qondirishda foydalaniladigan turli botanik oilalarga mansub madaniy va yovvoyi o'simliklar guruhi. Manzarali o'simliklar shahar va qishloqlarni ko'kalamzorlashtirish, istirohat bog'lari, ijtimoiy, ishlab chiqarish binolari va turar joylarni bezatish, guldastalar yasash uchun o'stiriladi. Chiroyi, barglari, gullari, mevalari rangi, tanasining g'aroyib shakllari (shoxlari osilgan, soyabonsimon, us-tunsimon) bilan tavsiflanadi. Bir qator belgilariga, mas, hayot shakliga ko'ra — daraxtlar, butalar, chala butalar, o't o'simliklarga, poyasi shakliga ko'ra, tik o'sadigan, ilashib o'sadigan, pastak, yoyilib o'sadigan, osilib o'sadigan va boshqalarga bo'linadi.

Kalit so'zlar: Daraxt, buta, barg, shaxar va qishloq, biologik, agrotexnik.

Manzarali o'simliklar biologik xususiyatlari hamda agrotexnika talablariga qarab: daraxt va butalarga, ko'p yillik, ikki yillik, bir yillik, boshqososh (g'allagulli), piyozli va boshqa o'simlik guruhlariga bo'linadi.

Manzarali daraxt va butalarga yaproqli, igna bargli, doim yashil va barg to'kuvchi o'simliklar kiradi. Xiyobon, ko'chalarga, hovuz va ko'l bo'ylariga eman (dub), kashtan, chinor, akatsiya, oq qayin, majnuntol, terak, sarv, oq qarag'ay, shamshod, do'lana, archa; shiy-pon va ayvon tevaragiga ilashib usuvchilar — tok, chirmoviq, butalardan atirgul, siren va boshqa ekiladi. Ko'p yillik Manzarali o'simliklar ga istirohat bog'lari, xiyobonlarda o'stiriladigan sergul, serbarg va manzarali mevali usimliklar kiradi. Iliq iqlimli mamlakatlarda ko'p iilliklarning qishda ochiq dalada qoladigan va ko'chirib olib, issikxonada saqlanadigan xillari bor. Ba'zi ko'p yilliklar iqlimi sovuq mintaqalarda bir yillik o'simlik sifatida o'stiriladi. Ular bahorda ildiz, ildizpoya, ildizmeva, piyozchasidan o'stiriladi. Ko'p yillik o'simliklar bir yerda 3—5 yil va undan ortiq usadi. Qalamchasi va urug'idan ko'paytiriladi. Ikki yillik Manzarali o'simliklar xushmanzara gulli o'simliklar bo'lib, birinchi yili tupbarg , ikkinchi yili gulli va mevali poya hosil qiladi. Bu guruhga, shuningdek, ikki yillik si-fatida ustiriladigan ba'zi kup yillik o'simliklar ham kiradi. Bulardan, asosan, gulzor barpo etishda foydalaniladi.



Bir yillik Manzarali o'simliklar ga urugidan ekiladigan va Usuv davri bir yil davom etadigan o'simliklar, birinchi yili gullaydigan, lekin sovuqqa chidamsiz o'simliklar ham kiradi (mas, geliotrop, itog'iz, funksiya, lobeliya va boshqalar). Bir yillik o'simliklarga chiroyli gullaydigan, naqsh barglilar, "gilam" hosil qiladigan, novdalari osilib turadigan ampal va boshqa o'simliklar guruhi kiradi. Iliq iqlimli hududlarda ko'pchilik bir yillik o'simliklar vegetatsiya davrini uzaytirish va erta gullashi uchun mart— aprelda parnik va oranjereyalarga ekiladi, so'ngra ochiq yerga kuchiriladi, ayrimlari to'g'ridan-to'g'ri ochiq yerga ekiladi. Bularga qo'qongul, xinagul, tirnoqgul, ko'knorgul, nastursiya, petuniya, tamakigul, baxmalgul, ipomeya va boshqa kiradi. G'alla gulli Manzarali o'simliklar boshqodoshlarga mansub bo'lib, gulchilikda guddastalar tayyorlashda foydalaniladi.

Maysazorlarga yakka va guruhlab ekishda baland o'sadigan, gulzor chetlariga va guruxlab ekishda past o'sadigan g'allagulli o'simliklardan foydalaniladi. Piyozli Manzarali o'simliklar piyozguldooshlar va chuchmomaguldoshlarga mansub bo'lib, manzarali bog'dorchilikda ko'paytiriladi. Bularga boy-chechak, lola, nargis, giatsintlar, piyozgul va boshqa kiradi. Asosan, piyozchalaridan ko'paytiriladi.